TABIATNI MUHOFAZA QILISH VA TOG‘ TURIZMINING UYG‘UNLIGI

Umirzaqov Oybek
GulDU tayanch doktoranti
oybekumirzaqov0@gmail.com
Ismailov Xusan
GulDPI geografiya fani o’qituvchisi

Qabul qilindi: 07.11.2025
Ko‘rib chiqildi: 08.11.2025
Tasdiqlandi: 09.11.2025
Kalit so’zlar:
Tabiiy sharoit, rekreatsion hududlar, degredatsiya, tog’, tog’oldi hudud, dam olish, qo’riqxona.

Annotatsiya. O‘zbekistonda qulay tabiiy-iqlim sharoitiga ega bo‘lgan kichik tog‘ vodiylari (soylari) ko‘p. Bu soylar shaharlarga yaqin bo‘lib, ko‘plari qirrali rekreatsion o‘zlashtirish va qisman turistik ob’ektlari bo‘lib qolgan. Shu bilan birga ko‘pgina zonalarda va daralarda rekreatsion hududlar yuqori darajada antropogen ta’sirida bo‘lib, soylarning sanitar-gigienik sharoiti keskin buzilmoqda.

Turkiston tog‘larining o‘rta va yuqori qismlari o‘rmonlar bilan qoplangan edi. O‘rmonlar tog‘larga ulug‘vorlik bag‘ishlab kelgan. Tog‘larning bezagi bo‘lib kelgan bu o‘rmonlar, XX-asrda insonlarning kuchli ta’sirida degradatsiyaga uchrab chala cho‘llarga aylana boshladi. Shu o‘rinda tabiatshunos olim A. Gumboldtning “Insondan avval o‘rmon bo‘lgan, odam o‘zi bilan cho‘l keltiradi”, degan fikri qaysidir ma’noda o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Jizzax viloyatidagi tog‘ va tog‘ oldi hududi qishloqlari Baxmal, Zomin, Yangiobod, G‘allaorol va Forish tumanlarida joylashgan. Qolgan tumanlar esa asosan o‘zlashtirilgan cho‘l hududlarida tashkil topgan bo‘lib, ular ham o‘z navbatida o‘ziga xos demografik xususiyatlarga ega.

Jizzax viloyati tog‘ va tog‘ oldi tumaglarining ma’muriy hududiy tarkibi quyidagicha ifodalashimiz mumkin. Baxmal tumanida 10 ta qishloq fuqoralik yig‘iniga qarashli 102 ta qishloq, Zomin tumanida 12 ta QFY ga qarashli 80 ta qishloq, Forish tumanida 11 ta QFY ga qarashli 112 ta qishloq, G‘allaorol tumanida 14 QFY ga qarashli 106 ta qishloq va Yangiobod tumaniga qarashli 5 QFY ga qarashli 30 ta qishloq, jami 430 ta qishloq mavjud. Agar viloyatda umumiy qishloqlar soni 561 ta bo‘lsa, shundan 80 % qishloqlar tog‘ va tog‘ oldi hududlarida joylashgan.

Keyingi vaqtlarda tog‘ va tog‘ oldi hududlari qishloqlarida aholining sonini ortishi hisobiga kengayib bormoqda va bu quyidagi bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda:

- aholi tobora “yuqorilab”, ya’ni tog‘ etaklarigacha joylashib, tog‘larning muhofaza hududlarigacha kirib bormoqda;

- aholi asosan chorvachilik bilan shug‘ullanadigan qishloqlarda chorva tuyog‘i ko‘payib, tabiiy landshaftlarga zarar keltiradi, dorivor va noyob o‘simliklar kamayib hamda yo‘qolib ketishiga olib keladi;

- aholi ko‘payishi bilan kishilarning tog‘larga qatnovi ko‘payib boradi, bu esa o‘ziga xos tabiatga ega bo‘lgan tog‘lardagi muhitning ifloslanishi va buzilishiga sabab bo‘ladi.

Tog‘lar mamlakatimizning estetik boyligi hisoblpanadi. Shu bois ularni barqaror rivojlanish qonuniyatlariga binoan, kelajak uchun asrash lozim. Bu yerlarda rekreatsiya va turizm, xususan agro va ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Yuqorida ta’kidlangan muammolar tobora keskinlashib borishi mumkinligini hisobga olgan holda, ularning oldini olish uchun quyidagi choralarni qo‘llashi maqsadga muvofiq:

- Tog‘ qishloqlarida aholi uy-joylari qurishini tartibga solish;
- Aholi joylashuvi va uy-joy qurish, foydalanish mumkin bo‘lgan hududlar chegarasini qatiy belgilash;
- Qishloq joylar aholisini doimiy ish bilan ta’minlash, sanoat korxonalari, aholiga xizmat ko‘rsatish (servis) sohalarini rivojlantirish;
- Tog‘ qishloqlari aholisining turmush darajasini yaxshilash, mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
- Tog‘ hududlarida zamoniviy rekreatsiya va turizm infratuzilmasini shakllantirish;
- Tog‘li hududlar yer – suv resurslari va ularning muhofazasini ta’minlash.

Turkiston tog‘li hududlarida “Tabiat-aholi-xo‘jalik” uchbirligidagi muvozanatning saqlash maqsadida 1 ta milliy bog‘, 3 ta qo‘riqxona tashkil qilingan. Quyida, hududdagi Zomin va Nurota qo‘riqxonalari hamda Zomin milliy bog‘i to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz.

Zomin davlat tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasi O‘zbekistondagi to‘ng‘ich qo‘riqxona bo‘lib, 1926 yilda “G‘o‘ralash tog‘-archa qo‘riqxonasi” nomi bilan tashkil etilgan edi. Ammo 1929 yilga kelib u qo‘riqxona tugatiladi. Keyinchalik 1933 yilda qayta tiklandi. Bu hududda tabiatni muhofaza qilish ishlari 1951 yilgacha davom etdi, shu yili qo‘riqxona hududi Jizzax o‘rmon xo‘jaligi ixtiyoriga berildi.

O‘zbekiston Ministrlar Sovetining qaroriga binoan 1960 yilda 15500 gektar maydonga ega bo‘lgan “Zomin davlat tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasi” nomi bilan qayta tashkil etildi. Zomin tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasini tashkil etishdan asosiy maqsad - tog‘ o‘rmonlarini va archa biologiyasini o‘rganish, archazorlarni ko‘paytirish, hayvon va o‘simlik turlarini saqlab qolish ishlari olib boriladi. Relefining murakkabligi va turli iqlim-tuproq sharoitlariga ko‘ra, qo‘riqxonada 3 ta o‘simlik mintaqasi (dasht, o‘rmon va subalp) mavjud. Qo‘riqxona hududi tipik tog‘li o‘lka bo‘lib, dengiz sathidan 1760-3500 m balandlikda (eng yuqori nuqta –

G‘o‘ralash tog‘i 3561 m balandlikda). Yillik o‘rtacha yog‘in miqdori 400 mm dan ortiq. Iqlimi keskin kontinental, maksimal harorat yozda 33^0C, qishda -35-38^0C.

Tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasining tabiati noyob, u yerda archazorlar, ko‘m-ko‘k maysazorlar bilan almashinadi. Yozda ham salqin bo‘lib turadigan daralar, tez oqar daryolar va sharsharalar qo‘riqxonaga fayz berib turadi. O‘rmon mintaqasida archadan tashqari irg‘ay, uchqat, zirk, qizil chetan, dukcho‘p, turang‘il, do‘lana, qoraqand kabi daraxt va butalar, tog‘ o‘tloqlarida oq yaproq, oq bosh tikan, qizil tikan singari o‘simliklar o‘sadi.

Zomin davlat tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasining hayvonot dunyosi ham xilma-xil. Qo‘riqxonada bir necha xil sudralib yuruvchilar (agama, kaltakesak, chipor ilon, suvilon, qalqontumshuq), qushlar (qora turna, burgut, to‘rg‘ay, miqqiy, ukki, qirg‘iy, boyqush, boltatumshuq, suvchumchuq, kaklik, mayna, g‘urrak) va sutemizuvchilar (jayra, tog‘ suvsari, oq tirnoqli Turkiston silovsini, qo‘ng‘ir ayiq, bo‘ri, tulki, to‘ng‘iz, tog‘ takasi) ni ham ko‘pligini ko‘ramiz. Qo‘riqxonada O‘zbekiston “Qizil kitob”iga kiritilgan qo‘ng‘ir ayiq (yoki oq tirnoqli ayiq), Turkiston silovsini, arxar, qor barsi, qora turna, burgut va boshqalar yashaydi. Qo‘riqxona hududida o‘simliklarning 720 turi, turli qushlarning 130 turi, sutemizuvchilarning 37 turi, sudralib yuruvchilarning 8 turi, baliqlarning 1 turi tavsiflangan.

Qo‘riqxona maydonining 10120 gektarini archazorlar va o‘rmonlar egallaydi va hududda archaning 3 turi o‘sadi. Archazorlarning quyi qismida (1900-2700 m) Zarafshon archasi yoki qora archa, o‘rta qismida (2100-2800 m) yarim sharsimon yoki saur archa, yuqori qismida (2100-3200) Turkiston yoki o‘rik archa o‘sadi. Bu yerda archalar indikatorlik vazifasini ham bajaradi, ya’ni archalarga qarab tog‘larning mutloq balandligini aniqlash mumkin. Zomin davlat tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasi hududida o‘sadigan archalarning o‘ziga xos xususiyati bor.

Zarafshon archasi quruqlikka bardoshli, yuqori shoxlari qoramtir, to‘q rangda bo‘lganligi uchun “qora archa” deb yuritiladi. Saur archaning shoxlari sadasimon tarzda bo‘lib, ba’zan “sada archa” deb ham yuritiladi. Saur archa archalar o‘sadigan mintaqaning o‘rta qismida uchraydi.

Turkiston archasi, mintaqaning eng yuqori qismida uchraydi. Bu yerda namgarchilik yuqori bo‘lib, na’matak, dukcho‘p kabi butalar ham o‘sadi. Turkiston archasining shakli o‘rik daraxtini eslatganligi uchun ham “o‘rik archa” deb ham yuritiladi.

Xulosa. Archazorlarning o‘ziga xos iforli hidlari kishi dimog‘iga xush yoqadi, ayniqsa issiq kunlarda uning hidi o‘tkir bo‘ladi. Archalardan aholi turli maqsadlarda, xususan, uzoq vaqt chirimaydigan xususiyatga ega bo‘lganligi uchun qurilish materiallari, hatto tagsinch - poydevor sifatida ishlatilib kelingan. Uning murg‘ak novdalari tarkibida ifor (efir) moyi, mevasida qand, oshlovchi, bo‘yoq va boshqa moddalar bor. Ulardan shifobaxsh ifor moylari olinadi. Mevasi (g‘uddasi) ning qaynatmasi milk va og‘iz bo‘shliqlari kasalliklarida chayish

uchun ishlatiladi. Qora archaning yosh novdalari tolqoni bosh og‘rig‘ida hidlanadi, ifor moyi yaraga surtiladi. Archadan olingan moy tibbiyotda keng qo‘llaniladi. Archaning barglaridagi yoqimli hidga ega bo‘lgan modda - fitonsidlar yurak va o‘pka kasalliklari uchun shifodir. Archazorlarni tabiiy shifoxonalar desak ham xato bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdiraxmonov A. Bo‘stonliq tumani rekreatsiya va turizm resurslari va ulardan foydalanishning ayrim masalalari. Zamonaviy georafiya va uning rivojlanish istiqbollari. Toshkent, 25-27 mart 2011y.
2. Abduvohidov A., Qutlimurotov F. Turizm iqtisodi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU. 2007. - 180 b.
3. Alibekov L.A. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Samarqand 2006 y.
4.Alibekov L.A., Nishonov S.A. Prirodnыe usloviya i resursы Djizakskoy oblasti. – Toshkent: O‘zbekiston, 1978.
5. Alibekov L.A. Zomin milliy bog‘i va geoekologik muammolar yechimining geografik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
6. Alieva M.T. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. Darslik. –T.: TDIU. 2007. -339 b.
7. Alieva M.T. Mehmonxona menejmenti. Darslik. –T.: TDIU. 2010. -275 b.